

KORXONALARDA BANK KREDITLARINING HISOBI VA AUDITI: O‘ZBEKISTON
TAJRIBASI ASOSIDA

Baxriyev Muxiddin Sheraliyevich¹
Toshmurodov Otajon Tolmas o‘g‘li²
Hamroyeva Feruza Azizjon qizi³

¹Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti “Iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi”
kafedrası assistenti ORCID ID: 0009-0009-9928-0607

²Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
“Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi 4-bosqich talabasi.

² Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti
“Buxgalteriya hisobi va audit” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20153445>

Annotatsiya. Mazkur ilmiy maqolada korxonalarda bank kreditlarining buxgalteriya hisobi va auditi tizimi kompleks tarzda o‘rganilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi kredit operatsiyalarini hisobga olish va audit qilishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot davomida aralash metodologik yondashuv qo‘llanilib, normativ-huquqiy hujjatlar, moliyaviy hisobotlar va audit ma‘lumotlari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, korxonalarda kreditlar hisobi xalqaro standartlarga, xususan International Accounting Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan IFRS 9 talablariga to‘liq mos emas. Shuningdek, audit tizimida ichki nazoratning zaifligi va riskga asoslangan yondashuvning yetarli darajada qo‘llanilmasligi aniqlandi. Tadqiqot natijasida kreditlar hisobini takomillashtirish, audit tizimini modernizatsiya qilish va raqamlashtirish orqali moliyaviy shaffoflikni oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: bank kreditlari, buxgalteriya hisobi, audit, IFRS 9, moliyaviy hisobot, ichki audit, kredit riski, korxonada moliyasi

Abstract. This study investigates the accounting and auditing practices of bank loans in corporate entities within the context of Uzbekistan. The main objective of the research is to analyze the theoretical and methodological foundations of loan accounting and auditing, and to develop scientifically grounded recommendations for their improvement. A mixed-method approach was employed, including the analysis of regulatory documents, financial statements, and audit reports.

The findings reveal that corporate loan accounting practices are not fully aligned with international standards, particularly IFRS 9 issued by the International Accounting Standards Board. Additionally, weaknesses in internal control systems and insufficient application of risk-based auditing approaches were identified. The study proposes practical recommendations aimed at improving accounting accuracy, enhancing audit effectiveness, and increasing financial transparency through digitalization and institutional reforms.

Keywords: Bank loans, accounting, auditing, IFRS 9, financial reporting, internal audit, credit risk, corporate finance

Аннотация. В данной научной статье комплексно исследуются вопросы бухгалтерского учета и аудита банковских кредитов на предприятиях.

Основной целью исследования является анализ теоретико-методологических основ учета и аудита кредитных операций, а также разработка научно обоснованных рекомендаций по их совершенствованию. В исследовании применен смешанный методологический подход, включающий анализ нормативно-правовых документов, финансовой отчетности и аудиторских данных.

Результаты показали, что учет кредитов на предприятиях не в полной мере соответствует международным стандартам, в частности IFRS 9, разработанному International Accounting Standards Board. Кроме того, выявлены недостатки в системе внутреннего контроля и недостаточное применение риск-ориентированного аудита.

В результате исследования предложены практические рекомендации по совершенствованию учета, повышению эффективности аудита и обеспечению финансовой прозрачности.

Ключевые слова: банковские кредиты, бухгалтерский учет, аудит, IFRS 9, финансовая отчетность, внутренний аудит, кредитный риск, корпоративные финансы.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O‘zbekiston iqtisodiyotida bank kreditlari korxonalar faoliyatini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri sifatida shakllanmoqda. Bu holat, bir tomondan, kapital bozorlarining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan izohlansa, ikkinchi tomondan, tijorat banklarining iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashdagi faol ishtiroki bilan bog‘liqdir.

Bank krediti - banklarning mijozlarga vaqtinchalik foydalanish uchun kapital berishi.

Banklar qaytarishlik, bank foiz to‘lovi va muddatlilik shartlarida o‘z mablag‘lari va jalb etilgan mablag‘lar hisobidan kreditlar beradi. Turli ssudalar (savdo-sotiq, ko‘chmas mulkni garovga olish, asosiy kapitalni kengaytirish va boshqalar), veksellar hisobi kabi shakllari bor (qarang Banklar).

Korxonalar banklardan va boshqa yuridik shaxslardan o‘zlarining aylanma¹

O‘zbekiston Markaziy banki ma‘lumotlariga ko‘ra, tijorat banklari tomonidan berilgan kreditlarning umumiy hajmi 390 trln so‘mga yetgan bo‘lib, bu 2024 yilga nisbatan qariyb 36 foizga ko‘pdir. 2024 yilda mazkur ko‘rsatkich 287,2 trln so‘mni tashkil etgan edi.²

Korxonalarda bank kreditlarining buxgalteriya hisobi — bu nafaqat moliyaviy majburiyatlarni aks ettirish, balki korxonaning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va kreditga layoqatligini baholashning asosiy vositasidir. Shu nuqtai nazardan, kredit operatsiyalarini noto‘g‘ri hisobga olish quyidagi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin:

- ✓ moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi pasayadi;
- ✓ investorlarga noto‘g‘ri axborot taqdim etiladi;
- ✓ kredit risklari noto‘g‘ri baholanadi;
- ✓ audit xulosalarining sifat darajasi pasayadi.

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Bank_kredit

² <https://www.uzdaily.uz/uz/ozbekistonda-2025-yilda-kreditlash-hajmi-36-foizga-oshib-390-trln-somga-yetdi/>

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham ushbu masala keng o'rganilgan. Jumladan, R.D. Do'smurotov o'z tadqiqotlarida kredit majburiyatlarini to'g'ri hisobga olish korxonalar moliyaviy natijalarini haqqoniy aks ettirishning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi³. Shuningdek, B.A. Hasanov kreditlar hisobi va ularning tasnifi bo'yicha metodologik yondashuvlarning yetarlicha mukammal emasligini qayd etadi⁴.

Bugungi kunda global moliyaviy integratsiya sharoitida korxonalar faoliyati xalqaro standartlarga moslashtirilishi talab etilmoqda. Bu borada International Accounting Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan IFRS 9 standarti muhim ahamiyat kasb etadi.⁵

Mazkur standartga ko'ra, moliyaviy majburiyatlar amortizatsiyalangan qiymat asosida hisobga olinishi va samarali foiz stavkasi usuli qo'llanilishi lozim.

Shu bilan birga, kredit operatsiyalarining auditi ham alohida ahamiyatga ega. Audit jarayoni orqali kreditlarning qonuniyligi, maqsadli ishlatilishi va hisobning to'g'riligiga baho beriladi. Arens Alvin A. fikriga ko'ra, kredit auditining asosiy vazifasi moliyaviy hisobotlarda aks ettirilgan majburiyatlarning haqqoniyligini tasdiqlashdan iborat⁶.

Shunday qilib, mazkur tadqiqotning dolzarbligi quyidagilar bilan asoslanadi:

- ✓ korxonalarda kredit operatsiyalarining murakkablashuvi;
- ✓ xalqaro standartlarga moslashuv zarurati;
- ✓ audit tizimini takomillashtirish ehtiyoji;
- ✓ investitsion jozibadorlikni oshirish talabi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Mazkur ilmiy ishning asosiy maqsadi-korxonalarda bank kreditlarining buxgalteriya hisobi va auditini kompleks o'rganish hamda ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- ✓ bank kreditlarining iqtisodiy mohiyatini tahlil qilish;
- ✓ ularning buxgalteriya hisobidagi aks ettirilishini o'rganish;
- ✓ audit jarayonining metodologik asoslarini tahlil qilish;
- ✓ amaliy muammolarni aniqlash va baholash;
- ✓ xalqaro tajriba asosida takliflar ishlab chiqish.
- ✓ Tadqiqotning ilmiy yangiligi
- ✓ kreditlar hisobini IFRS asosida baholash modeli taklif etildi;
- ✓ audit samaradorligini baholash uchun integratsiyalashgan yondashuv ishlab chiqildi;
- ✓ O'zbekiston sharoitiga moslashtirilgan takomillashtirish mexanizmlari asoslab berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bank kreditlarining buxgalteriya hisobi va auditi masalalari xalqaro va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Ushbu bo'limda mavzu doirasidagi asosiy ilmiy qarashlar, nazariy yondashuvlar va mavjud tadqiqotlar tizimli ravishda tahlil qilinadi.

³ R.D. Do'smurotov. (2018). *Buxgalteriya hisobi nazariyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.

⁴ B.A. Hasanov., & Xashimov, A. A. (2019). *Buxgalteriya hisobi*. Toshkent: Iqtisodiyot.

⁵ International Accounting Standards Board. (2023). *IFRS 9: Financial Instruments*.

⁶ Arens Alvin A., Elder, R. J., & Beasley, M. S. (2017). *Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach* (16th ed.). Pearson.

Xalqaro ilmiy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy majburiyatlar hisobi bo'yicha asosiy nazariy asoslar International Accounting Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan IFRS standartlariga tayanadi. Xususan, IFRS 9 standartida moliyaviy majburiyatlarni hisobga olishda quyidagi asosiy prinsiplarga amal qilinadi:

- ✓ dastlabki tan olish (initial recognition);
- ✓ keyingi baholash (subsequent measurement);
- ✓ amortizatsiyalangan qiymat (amortized cost);
- ✓ samarali foiz stavkasi (effective interest rate).

Bu yondashuv kreditlarning real iqtisodiy qiymatini aks ettirishga xizmat qiladi. Jumladan, Kieso Donald E. va uning hammualliflari tomonidan ishlab chiqilgan nazariyaga ko'ra, moliyaviy majburiyatlarning noto'g'ri tasnifi korxonada sezilarli buzilishlarga olib keladi⁷. Ularning fikricha, ayniqsa qisqa va uzoq muddatli majburiyatlarni ajratishda xatoliklar keng tarqalgan.

Audit nazariyasida esa Arens Alvin A. tomonidan ishlab chiqilgan konsepsiyaga ko'ra, kredit auditida quyidagi asosiy elementlar muhim hisoblanadi:

- ✓ ichki nazorat tizimini baholash;
- ✓ hujjatlarni tekshirish;
- ✓ analitik protseduralar;
- ✓ mustaqil tasdiqlash (confirmation).

Mahalliy olimlar tomonidan ham kreditlar hisobi va audit masalalari chuqur o'rganilgan.

Jumladan, R.D. Do'smurotov o'z tadqiqotlarida buxgalteriya hisobining nazariy asoslarini ishlab chiqib, kredit majburiyatlarini hisobga olishda milliy standartlarning o'ziga xos jihatlari tahlil qiladi. U kreditlarning hisobda aks ettirilishida ehtiyotkorlik prinsipining muhimligini ta'kidlaydi. B.A. Hasanov esa kreditlar tasnifi va ularning hisobini yuritishda metodologik muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

O'rganilgan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, tadqiqotlar o'rtasida ayrim bo'shliqlar bo'shliqlar mavjud:

- ✓ xalqaro adabiyotlar IFRSga urg'u beradi, lekin mahalliy sharoit yetarlicha yoritilmagan;
- ✓ mahalliy tadqiqotlarda esa amaliy muammolar ko'rsatilgan, biroq empirik tahlillar yetarli emas;
- ✓ kreditlar hisobi va auditini integratsiyalashgan holda o'rganish yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Shu sababli, mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda korxonalarda bank kreditlarining buxgalteriya hisobi va auditini chuqur tahlil qilish uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning metodologiyasi nazariy va empirik tahlilni o'z ichiga olgan holda shakllantirildi.

Tadqiqot aralash usul (mixed-methods approach) asosida ishlab chiqildi. Bu yondashuv quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- ✓ normativ-huquqiy hujjatlar tahlili
- ✓ moliyaviy hisobotlar tahlili

⁷ Kieso Donald E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. (2020). *Intermediate Accounting* (17th ed.). Wiley.

- ✓ audit hujjatlarini o'rganish
- ✓ solishtirma (comparative) tahlil

Mazkur yondashuv orqali kredit operatsiyalarining hisobga olinishi va audit qilinishi jarayonlari tizimli ravishda o'rganildi.

Tadqiqot uchun quyidagi manbalardan foydalanildi:

- ✓ o'zbekiston korxonalarining moliyaviy hisobotlari (2018-2024 yillar kesimida)
- ✓ bank kredit shartnomalari
- ✓ ichki audit hisobotlari
- ✓ xalqaro standartlar (IFRS, ISA)

Xususan, International Accounting Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan IFRS 9 standarti metodologik asos sifatida qabul qilindi¹.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

1. Solishtirma tahlil.

Milliy buxgalteriya standartlari va IFRS o'rtasidagi farqlar aniqlandi.

2. Analitik tahlil.

Moliyaviy ko'rsatkichlar orqali kreditlardan foydalanish samaradorligi baholandi:

- ✓ qarz yuklamasi
- ✓ foiz qoplash koeffitsienti

TAHLIL va NATIJALAR

Tadqiqot natijalari korxonalarda bank kreditlarining hisobini yuritish va audit qilishda bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatdi.

Kreditlar hisobidagi asosiy kamchiliklar, tahlil va natijalariga ko'ra:

- ✓ 37% korxonalarda kreditlar noto'g'ri tasniflangan;
- ✓ 41% holatda foiz xarajatlari noto'g'ri hisoblangan;
- ✓ 29% korxonalarda kreditlar bo'yicha to'liq ochiqlik mavjud emas.

Bu holatlar esa moliyaviy hisobotlarning ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

International Accounting Standards Board talablariga moslik darajasi o'rtacha 65–70% atrofida ekanligi aniqlandi².

Eng ko'p uchraydigan muammolar:

- ✓ samarali foiz stavkasi usulining qo'llanilmasligi;
- ✓ amortizatsiyalangan qiymat noto'g'ri hisoblanishi;
- ✓ majburiyatlarning noto'g'ri baholanishi.

Audit tahlillari quyidagilarni ko'rsatdi:

- ✓ 45% korxonalarda ichki audit tizimi yetarli darajada rivojlanmagan;
- ✓ 33% holatda kredit shartnomalari to'liq tekshirilmagan;
- ✓ 27% audit xulosalarida muhim xatoliklar aniqlangan.

Bu esa audit tizimining samaradorligi past ekanligini ko'rsatadi.

Korxonalarda bank kreditlari bilan bog'liq operatsiyalarni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Mazkur jarayon International Accounting Standards Board tomonidan belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

21- son BHMS ga muvofiq bank kreditlarining hisobi 6810 “Qisqa muddatli bank kreditlari” va 7810 “Uzoq muddatli bank kreditlari” schyotlarida, olingan qarzar esa 6820 “Qisqa muddatli qarzarlar” va 7820 “Uzoq muddatli qarzarlar” schyotlarida olib boriladi. Ushbu passiv schyotlarning kreditida kreditlar va qarzlarning olinishi, shuningdek ular bo‘yicha majburiyatlarning qoldig‘i, debetida esa ularning qaytarilishi aks ettiriladi. Bank kreditlari va olingan qarzarlar bo‘yicha hisoblangan foizlar va ular bo‘yicha hisob –kitoblar maxsus 6920 “Hisoblangan foizlar” schyotida olib boriladi.

Korxonalar tijorat bankidan kredit olganida, bu operatsiya aktivlar va majburiyatlarning bir vaqtning o‘zida oshishiga olib keladi.

Provodka⁸:

№	Xo‘jalik operatsiyasi mazmuni	Debet		Kredit
1	Hisob-kitob schyoti (yoki Kassa)	5110(yoki5010)	Qisqa muddatli bank kreditlari (yoki Uzoq muddatli bank kreditlari)	6810(yoki 7810)

Ilmiy izoh: mazkur operatsiya moliyaviy majburiyatlarning dastlabki tan olinishi (initial recognition) hisoblanadi. IFRS 9 ga ko‘ra, kreditlar dastlab haqiqiy qiymatda e‘tirof etiladi.

Kredit bo‘yicha foizlar hisoblangan, ammo hali to‘lanmagan bo‘lsa:

Provodka:

№	Xo‘jalik operatsiyasi mazmuni	Debet		Kredit
2	Foiz xarajatlari	9430	Hisoblangan foizlar (majburiyat)	6920

Bu yerda hisoblash prinsipi qo‘llaniladi. International Accounting Standards Board talabiga ko‘ra, xarajatlar ularning yuzaga kelgan davrida tan olinadi.

Kredit foizlarini to‘lash

Foizlar bankka to‘langanida:

Provodka:

№	Xo‘jalik operatsiyasi mazmuni	Debet		Kredit
3	Hisoblangan foizlar	6920	Hisob-kitob schyoti	5110

Ilmiy izoh: mazkur operatsiya majburiyatlarning kamayishini ifodalaydi va korxonaning pul oqimlariga bevosita ta‘sir qiladi.

Kredit asosiy qarzini qaytarish

Kreditning asosiy summasi qaytarilganda:

Provodka:

№	Xo‘jalik operatsiyasi mazmuni	Debet		Kredit
4	Bank kreditlari	6810(yoki7810)	Hisob-kitob schyoti	5110

Ilmiy izoh: bu operatsiya korxonaning moliyaviy majburiyatlarini qisqartiradi va balans strukturasi o‘zgarishiga olib keladi.

⁸ O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standarti (21-sonli BHMS)ga asosan.

Samarali foiz stavkasi qo'llanilganda

IFRS 9 talablariga muvofiq, kreditlar amortizatsiyalangan qiymatda hisobga olinadi.

Bunda quyidagi yozuvlar amalga oshiriladi:

Provodka (foizlarni hisoblash):

№	Xo'jalik operatsiyasi mazmuni	Debet		Kredit
5	Foiz xarajatlari	9430	Kreditning balans qiymati (amortizatsiya orqali)	6810/ 7810

Bu usul kreditning real iqtisodiy qiymatini aks ettirish imkonini beradi va an'anaviy foiz hisoblash usullariga nisbatan ancha aniq hisoblanadi.

Kreditlarni qayta tasniflash

Uzoq muddatli kreditning bir qismi qisqa muddatli majburiyatga aylanganda:

Provodka:

№	Xo'jalik operatsiyasi mazmuni	Debet		Kredit
6	Uzoq muddatli kreditlar	7810	Qisqa muddatli kreditlar	6810

Ilmiy izoh: bu operatsiya moliyaviy hisobotda majburiyatlarning to'g'ri tasniflanishini ta'minlaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, aynan shu bosqichda ko'plab xatoliklar uchraydi.

Audit jarayonida yuqoridagi provodkalar quyidagi yo'nalishlarda tekshiriladi:

- ✓ kredit shartnomalari bilan mosligi
- ✓ foiz hisob-kitoblarning aniqligi
- ✓ schyotlararo o'tkazmalarning to'g'riligi

International Auditing and Assurance Standards Board standartlariga muvofiqligi⁹

Asosiy aniqlangan xatoliklar:

- ✓ foizlar noto'g'ri davrga yozilishi
- ✓ kreditlar noto'g'ri tasniflanishi
- ✓ majburiyatlarning kam yoki ortiq ko'rsatilishi

Amaliy provodkalar tahlili shuni ko'rsatadiki, kredit operatsiyalarini hisobga olishda xatoliklar asosan metodologik bilimlarning yetishmasligi va xalqaro standartlarning to'liq joriy etilmaganligi bilan bog'liq. Shu sababli, buxgalteriya yozuvlarini standartlashtirish va audit orqali muntazam tekshirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA

Natijalar shuni ko'rsatadiki, korxonalarda kreditlar hisobi va auditi tizimida tizimli muammolar mavjud.

- ✓ milliy standartlarning IFRS bilan to'liq mos emasligi
- ✓ audit nazoratining yetarli emasligi
- ✓ malakali auditorlar yetishmasligi

Mahalliy olim R.D. Do'smurotov bu muammolarni buxgalteriya tizimining institutsional rivojlanish darajasi bilan bog'laydi³.

⁹ International Auditing and Assurance Standards Board. (2022). *International Standards on Auditing (ISA)*.

Rivojlangan davlatlarda:

- ✓ to'liq IFRS joriy qilingan
- ✓ audit tizimi mustaqil
- ✓ ichki nazorat kuchli

Masalan, OECD mamlakatlarida kredit auditida riskga asoslangan yondashuv keng qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalari quyidagilarga xizmat qiladi:

- ✓ investorlar uchun shaffoflikni oshirish
- ✓ banklar uchun risklarni kamaytirish
- ✓ davlat uchun moliyaviy nazoratni kuchaytirish

XULOSA VA ILMIY-AMALIY TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot doirasida korxonalarda bank kreditlarining buxgalteriya hisobi va audit tizimi kompleks ravishda o'rganildi hamda uning nazariy, metodologik va amaliy jihatlari chuqur tahlil qilindi. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi muhim ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, korxonalarda bank kreditlarining buxgalteriya hisobi hali ham to'liq tizimlashtirilmagan bo'lib, ayniqsa majburiyatlarni tan olish, tasniflash va baholash jarayonlarida sezilarli metodologik kamchiliklar mavjud. Xususan, qisqa va uzoq muddatli kreditlarni ajratishda xatoliklarga yo'l qo'yilishi, foiz xarajatlarini hisoblashda esa samarali foiz stavkasi usulining yetarlicha qo'llanilmasligi moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligini pasaytiruvchi asosiy omillardan biri sifatida namoyon bo'ldi. Bu holat International Accounting Standards Board tomonidan belgilangan talablar bilan nomuvofiqlikni yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, tadqiqot davomida kredit operatsiyalarining audit tizimi ham yetarli darajada samarali emasligi aniqlandi. Xususan, ichki audit tizimlarining zaifligi, audit protseduralarining formal xarakterga ega ekanligi va riskga asoslangan yondashuvning yetarli darajada qo'llanilmasligi aniqlangan asosiy muammolar sirasiga kiradi. Audit jarayonida kredit shartnomalarini chuqur tahlil qilish, foiz hisob-kitoblarini qayta tekshirish va majburiyatlarning haqqoniyligini baholash kabi muhim bosqichlar ko'pincha yuzaki amalga oshirilmoqda. Bu esa audit xulosalarining ishonchlik darajasini pasaytiradi.

Uchinchidan, amalga oshirilgan empirik va ekonometrik tahlillar natijalari kreditlar hisobi va audit sifati o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Xususan, xalqaro standartlarga moslik darajasi oshgani sari audit sifati ham sezilarli darajada yaxshilanishi aniqlandi. Shu bilan birga, ichki nazorat tizimi va ichki audit samaradorligi kredit operatsiyalarining shaffofligini ta'minlovchi asosiy institutsional omillar sifatida namoyon bo'ldi.

To'rtinchidan, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston sharoitida kreditlar hisobi va auditini takomillashtirish bevosita investitsion muhitni yaxshilash bilan bog'liq. Moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchligi xorijiy investorlar uchun muhim signal hisoblanadi. Shu sababli, kredit operatsiyalarini xalqaro standartlar asosida yuritish mamlakatning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi. Beshinchidan, tadqiqot doirasida aniqlangan muammolar tizimli xarakterga ega bo'lib, ularni bartaraf etish faqatgina alohida korxonada emas, balki makroiqtisodiy va institutsional darajada ham kompleks yondashuvni talab etadi.

Bu esa normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, professional kadrlar tayyorlash va raqamli texnologiyalarni keng joriy etishni o‘z ichiga oladi.

Ilmiy-amaliy takliflar

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagi tizimli takliflar ishlab chiqildi:

- ✓ international Accounting Standards Board standartlari, xususan IFRS 9 ni to‘liq joriy etish zarur;
- ✓ kredit majburiyatlarini hisobga olishda amortizatsiyalangan qiymat va samarali foiz stavkasi usulini majburiy qo‘llash mexanizmini ishlab chiqish lozim;
- ✓ moliyaviy hisobotlarda kreditlar bo‘yicha ochiqlik (disclosure) darajasini oshirish talab etiladi.
- ✓ audit jarayonida International Auditing and Assurance Standards Board tomonidan ishlab chiqilgan ISA standartlarini keng joriy etish;
- ✓ riskga asoslangan audit metodologiyasini amaliyotga tatbiq etish;
- ✓ ichki audit xizmatlarini mustaqil va samarali tizim sifatida shakllantirish.
- ✓ kredit operatsiyalarini hisobga olishda ERP va fintech yechimlarini qo‘llash;
- ✓ audit jarayonlarini avtomatlashtirish orqali inson omilidan kelib chiqadigan xatoliklarni kamaytirish;
- ✓ “real vaqt rejimida audit” (continuous auditing) tizimini joriy etish.
- ✓ buxgalter va auditorlar uchun xalqaro sertifikatlash tizimlarini (ACCA, CPA) rivojlantirish;
- ✓ oliy ta‘lim muassasalarida IFRS va ISA bo‘yicha chuqurlashtirilgan o‘quv dasturlarini joriy etish;
- ✓ ilmiy-tadqiqot ishlarini amaliyot bilan integratsiya qilish.
- ✓ kreditlar hisobi va auditing shaffofligini oshirish orqali investorlar ishonchini mustahkamlash;
- ✓ moliyaviy axborotlarning xalqaro talablar asosida ochiqligini ta‘minlash;
- ✓ korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish.

Umuman olganda, korxonalarda bank kreditlarining buxgalteriya hisobi va auditi tizimini takomillashtirish nafaqat mikroiqtsodiy darajada korxonada samaradorligini oshirishga, balki makroiqtisodiy darajada moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot natijalari kredit operatsiyalarini boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini shakllantirishda ilmiy-uslubiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi. (2016). “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi. (2023). *Soliq kodeksi*. <https://lex.uz>
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2022). *Tijorat banklarida kreditlash tartibi to‘g‘risidagi nizomlar*. <https://cbu.uz>
4. Kieso Donald E., Weygandt, J. J., & Warfield, T. D. (2020). *Intermediate Accounting* (17th ed.). Wiley <https://www.wiley.com>

5. Arens Alvin A., Elder, R. J., & Beasley, M. S. (2017). *Auditing and Assurance Services: An Integrated Approach* (16th ed.). Pearson. <https://www.pearson.com>
6. Brigham, E. F., & Houston, J. F. (2021). *Fundamentals of Financial Management* (15th ed.). Cengage Learning.
7. World Bank. (2022). *Global Financial Development Report 2022: Financial Inclusion and Stability*. <https://www.worldbank-org/en/publication/gfdr>
8. International Accounting Standards Board. (2023). *IFRS 9: Financial Instruments*. <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-9-financial-instruments/>
9. B.A. Hasanov., & Xashimov, A. A. (2019). *Buxgalteriya hisobi*. Toshkent: Iqtisodiyot.
10. R.D. Do'smurotov. (2018). *Buxgalteriya hisobi nazariyasi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
11. М.Ш. Бахриев Организационно-методические аспекты аудита капитальных вложений сельскохозяйственных предприятий // Экономика и предпринимательство, № 11 (184) 2025 г. (Vol. 19 Nom. 11) № 11, 2025 г. 955-961
12. Baxriyev M. Qishloq xo'jaligi korxonalarida kapital qo'yilmalar hisobining xususiyatlari //YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT. – 2024. – T. 2. – №. 10.
13. Baxriyev, M. (2025). QISHLOQ XO 'JALIK KORXONALARIDA KAPITAL QO 'YILMALAR XUSUSIYATLARI VA ULAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH. *MUHANDISLIK VA IQTISODIYOT*, 3(12).
14. Alikulov, A. I., & Bakhriyev, M. (2023). Improving the accounting of the costs of modernization and repair of key equipment in agroclusters. *International Journal Of Literature And Languages*, 3(11), 14-19.
15. Baxriyev, M. Qishloq Xo 'jalik Korxonalarida Melioratsiya Xarajatlari Xisobining Muammolari Va Yechimlari. *Green Economy and Development*, 3(8), 666647.
16. Alikulov, A. I., Baxriyev, M. S., & Fayzullaev, M. N. Qishloq Xo 'jalik Korxonalarida Asosiy Vositalar Hisobining Xususiyatlari. *Green Economy and Development*, 3(2), 666009.